

M.B. Norqulova*Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti*

Kalit so'zlar: kompetensiya, grammatik kompetensiya, tayanch va xususiy kompetensiyalar, integratsiya, kasbiy faoliyat

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif tizimida kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari, yutuqlari va ehtiyoji haqida so'z boradi. Kompetensiya turlari hamda yurtimizda va xorijiy davlatlardagi kompetensiyalar o'xshahsliklari va farqlari haqida ma'lumot keltitilgan.

Yurtimizda ko'p yillar davomida chet tilini o'rganish uchun grammatikani o'rgatish birinchi o'rinda qo'yilgan, ya'ni agar o'quvchining til bo'yicha yaxshi baza (grammatik kompetensiya)ga ega bo'lishi unda tilning boshqa ko'nikmalarini shakllantirishda qiyinchiliklar yuzaga keltirmaydi. O'z ona tilidagi grammatik qurilishlarni bilmagan kishilar ham bexato so'zlasha oladilar. Lekin chet tili grammatikasini ma'lum darajada o'rganmay turib, undan to'g'ri foydalanish mumkin emas.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga kelib fanlararo ta'lif jarayonida kompetensiyaviy yondashuvlarga e'tibor qaratilmoqda. Ta'lif tizimida pedagoglar oldida turgan vazifa shundan iboratki, o'quvchilarga faqat nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni berish bilan kifoyalanmasdan, ushbu o'rganayotgan ma'lumotlarini jamiyatdagi o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirish kerak. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalanish, kasbiy faoliyatda tashabbuskorlik ko'rsatish, sog'lom raqobat va umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi .

Ta'lif jarayonida axborotlar biloan ishslash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lifning talablari xususan, "mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishi". Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lifni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lif muammolari o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi. M.M.Vahobov fikricha "kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lif-o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va

malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lmdir".

Ta'linda kompetensiyaviy yondashuv "... kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi".

Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2017 yil 6-apreldagi 187-son qaroriga ko'ra tasdiqlangan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartida kompetensiya "mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatida qo'llay olish qobiliyati" sifatida talqin etilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida Kompetensiya (lot. Competere-layoqatli, munosib bo'lmoq) ma'lum soha yuzasidan bilim, malaka, ko'nikma. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi deb ta'rif berilgan. Yuridik nuqtai nazaridan olib qarasak, kompetensiya qonun yo'li bilan bir shaxsga berilgan vakolatdir. Bu vakolat shu shaxsning ma'lum bir sohaga oid bilim va tajribasidan kelib chiqib berilishi yurisprudensiyaga oid ensiklopedik lug'atda ham keltirilgan.

Kompetensiya ikki turga ajratiladi: tayanch va xususiy. Tayanch kompetensiya ijtimoiy hayotdagi umumiy fanlarga aloqador bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ma'lum bir shaxsning boshqa shaxslar bilan ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, kreativlik, tashabbuskorlik bilan o'z ishiga yondashish, raqobatdosh jamiyatda o'z o'rniga ega kadr sifatida namoyon bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Bu malakalar o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- kommunikativ kompetensiya
- milliy va umummadaniy kompetensiya
- shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi
- axborot bilan ishlash kompetensiyasi
- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
- matematik savodxonlik kompetensiyasi, fan va texnika yutuqlaridan foydalana olish kompetensiyasi

Bu kompetensiyalar AQSH, Koreya, Fransiya, Rossiya va boshqa davlatlarda bir-biridan qisman farq qiladi. Ular jamiyatning rivojlanish darajasi va aholining madaniy va ma'rifiy kelib chiqishiga asosan tarkib topdiriladi. Qo'shimcha tarzda ularga mana bularni misol qilishimiz mumkin

- ona tili va chet tilida muloqot qila olish
- mustaqil bilim olish kompetensiyasi

- tashabbuskorlik va tadbirkorlik kompetensiyasi
- samarali ishslash yo'llariga oid kompetensiya
- muammolarni hal qila olish kompetensiyasi
- dunyoda va jamiyatda yashay olish
- kreativ fikrlash va ijodkorlik kompetensiyasi

Xususiy kompetensiya ma'lum bir fan yoki sohaga taaluqli bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalardan tashkil topgan bo'lib, ta'lim tizimida o'zlashtirishi kerak bo'lgan fanlarga oid ma'lumotlarni amaliy hayotda qo'llay olish qobiliyatidir. Masalan, ingliz tiliga oid xususiy kompetensiyalar qatoriga kommunikativ, grammatik, lingvistik, madaniyatlararo muloqot, nutqiy, pragmatik va ijtimoiy-madaniy kabi kompetensiyalarni qamrab oladi.

Tayanch va xususiy kompetensiyalar bir-birini to'ldirgan holda, shaxs rivojlanishida o'ziga xos o'rinni tutadi. Fanlarni integratsiyalashtirib o'qitish davomida, o'quvchilarda turli vaziyatlarga moslasha olish, o'z qobiliyatlarini namoyon eta olish, shaxsiy fazilatlarini jamiyat talablariga binoan shakllantira olish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida samarali natijalarga erishish mumkin.

Mashhur psixolingvist olima I.A.Zimnyayaning fikriga ko'ra, "kompetensiya" tushunchasi ilk bor XX asrning 50-60 yillarda fanga amerikalik lingvist olim N.Xomskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, "Sintaktik strukturalar", "Sintaktik nazariyasining aspektllari" nomli asarlarida kompetensiyanı shaxsning biror faoliyatni amalgaloshishga oshira olish qobiliyati sifatida talqin etgan va so'zlovchi va tinglovchining bilimi va tilni ma'lum bir nutqiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasi o'rtasidagi farqning muhimligi haqida fikr yuritgan. "Kompetensiya" ma'lum bir soha bo'yicha professionallikni, shu sohaga oid bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishni, layoqatilik va omilkorlikni o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda kompetensiya va kompetentlik to'g'risida turli fikrlar mavjud.

E.G.Azimov va A.A.Shukin kompetensiya tushunchasini biror fanni o'qitish jarayonida shakllantirilgan bilim, ko'nikma va malakalar birligi sifatida; kompetentlikni esa hayotiy tajriba davomida olingan bilimlar asosida yuzaga kelgan ko'nikma va malakalardan ma'lum bir faoliyatni bajarishda foydalanish qobiliyatidir deya ta'rif beradilar.

B.X.Xodjayevning fikriga ko'ra "kompetensiya o'quvchining yangi shaxsiy tajribani o'zlashtirishga doir o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan harakatlarini integratsiyalashga xizmat qiladi. N.A.Muslimov kompetentlik alohida bilim va malakalarining egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishi ekanligini ta'kidlaydi"

G.A.Asilova dissertatsiya ishida "kompetensiya" va "kompetentlik" haqida yuritgan fikrlarini umumlashtirilgan holda "kompetensiya"-ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, malaka, ko'nikmalarining

samarali qo'llanishi; "kompetestlik" muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir" deya ta'rif keltirgan

J.E.Usarov o'z ilmiy-tadqiqotlarida kompetensiyaning "ma'lum soha yoki yo'nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarlikni namoyon bo'lishi hamda shaxsning turli nostandard holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir"

O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari B.Raxmonov, U.Tursunova Y.Asadov, N.Turdiyev, S.Akbarova, D.Tumirovning tadqiqot ishlarida tizimlashtirilib tavsiflangan va o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida ular egallagan bilim, ko'nikma, malakalaridan hayotiy ehtiyojlarida qo'llay olish qobiliyatları darajasini tashxislash va korreksiyalashning samarali vosita, usullari mazmun-mohiyati olib berilgan.

F.Delamare va J.Winterton kompetensiyanı ma'lum bir faoliyat talab qiladigan standart sulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlikni esa ushbu standartga moslik darjası, ya'ni kompetensiyanı namoyish qilishning pirovard natijasi deya tavsiflaydilar.

Ta'lim jarayonida axborotlar biloan ishslash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limning talablari xususan, "mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishi". Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. E.G.Azimov va A.A.Shukin[52.472] Alimov F.Sharabidinovich UDK.:378.016:811.111
2. J.Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 2012, 170-bet
3. T.K.Sattorov Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе Автореф.канд.наукю дисс.-М.,1982.-7-bet
4. M.Choriyev "English grammar" T 2004, 3-bet
5. M.G'aporov "Ingliz tili grammatikasi" T 2008.
6. Joanna Kosta, Melanie Williams "Prepare" 8-sinf darsligi, 2021 Cambridge University Press